

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHDA  
MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI VA  
PEDAGOGIK IMKONIYATLARI****Saparov Xikmat Fayzullayevich***Osiyo Xalqaro Universiteti magistri**Ilmiy rahbar: Jamilova Bashorat Sattarovna**Pedagogika f. f. d. (PhD), dotsent*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada modulli ta'lim texnologiyasining boshlang'ich ta'limda qo'llanilishi, uning afzalliklari va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Modulli yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, o'z-o'zini baholash, tanqidiy va ijodiy yondashuvga undaydi. Shu bilan birga, u o'qituvchining faolligini o'zgartirib, uni yo'naltiruvchi va hamkor sifatida shakllantiradi. Modulli ta'lim texnologiyasi orqali o'quvchilarning ta'limga bo'lgan motivatsiyasi ortadi, bilimlar barqaror o'zlashtiriladi va ta'lim jarayonining samaradorligi oshadi. Mazkur yondashuv zamonaviy ta'limda raqobatbardosh, mustaqil qaror qabul qiluvchi va ijtimoiy moslashuvchan shaxsni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.*

**Kalit so'zlar:** *Modulli ta'lim, pedagogik texnologiya, mustaqil fikrlash, o'z-o'zini baholash, boshlang'ich ta'lim, innovatsion metod, o'quv faoliyati, kompetensiya, samaradorlik, ijodiy yondashuv.*

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimi shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarda asosiy fikrlash mexanizmlari, ijtimoiy va kognitiv ko'nikmalarni shakllantirish davridir. Ushbu bosqichda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish ta'limning ustuvor maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bu maqsadga erishishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Modulli yondashuv orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammoni tahlil qilish, ijodiy yondashuv, hamda mustaqil qaror qabul qilish kabi zamonaviy ko'nikmalar shakllantiriladi.

**Maqsad va uni asoslash.** Modulli ta'lim texnologiyasining asosiy prinsiplari o'zida ta'limning moslashuvchanligi, mustaqilligi va tizimlilik kabi jihatlarni mujassam etadi. Eng muhim prinsiplardan biri bu — modullilik prinsipidir. Unga ko'ra, o'quv mazmuni alohida, mustaqil o'rganilishi mumkin bo'lgan mantiqiy bo'laklarga — modullarga bo'linadi. O'quvchining faoliyatiga yo'naltirish prinsipi esa dars jarayonining markazida o'quvchi turishini nazarda tutadi. Bunda o'qituvchi yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi rolda qatnashadi. Mustaqillik prinsipi o'quvchiga ta'limni o'z sur'atida va shaxsiy qiziqishlariga mos ravishda olib borish imkonini beradi. Shuningdek, individuallashtirish, ya'ni har bir o'quvchining o'ziga xos o'zlashtirish xususiyatlarini inobatga olish ham modulli texnologiyaning ajralmas jihatlariandir. Tizimlilik va

izchillik, shuningdek, refleksiya va o'z-o'zini baholash prinsiplari orqali o'quv jarayonining bosqichma-bosqich nazorati va rivojlanishi ta'minlanadi.

Modulli ta'lim texnologiyasining asosiy elementlari — bu o'quv moduli, ma'lumotlar bloki, amaliy topshiriqlar, o'z-o'zini baholash vositalari va refleksiya materiallaridir. O'quv moduli — bu mustaqil o'rganiladigan va yakuniy maqsadga ega bo'lgan o'quv birligi bo'lib, unda nazariy ma'lumotlar, amaliy topshiriqlar va baholash mezonlari mujassam bo'ladi. Ma'lumotlar bloklari orqali o'quvchi zarur nazariy bilim, jadval, sxema yoki grafiklar bilan tanishadi. Amaliy topshiriqlar esa olingan nazariy bilimni mustahkamlash va real vaziyatlarda qo'llashga xizmat qiladi. O'z-o'zini baholash vositalari o'quvchining o'z bilim darajasini aniqlashiga yordam beradi. Refleksiya materiallari orqali esa o'quvchi o'z fikrini tahlil qiladi, o'zini baholaydi va mustaqil xulosa chiqaradi.

Mazkur texnologiya uch asosiy bosqichda amalga oshiriladi: tayyorlov, asosiy va yakuniy bosqich. Tayyorlov bosqichida o'qituvchi o'quv modullarini ishlab chiqadi, kerakli materiallar tayyorlanadi va o'quvchilar modulli texnologiyaning mohiyati bilan tanishtiriladi. Asosiy bosqichda o'quvchi modul ustida ishlaydi, topshiriqlarni bajaraydi, mustaqil o'rganadi va o'qituvchidan maslahat oladi. Yakuniy bosqichda esa bilim va ko'nikmalar baholanadi, refleksiya o'tkaziladi va o'zlashtirish darajasi aniqlanadi.

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.** Modulli ta'lim texnologiyasi o'quvchi shaxsining rivojlanishida, ayniqsa mustaqil fikrlash, refleksiya va ijodiy yondashuvlarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bu texnologiya o'quvchilarga individual yondashuv, o'z sur'atida o'rganish, mustaqil izlanish va o'z fikrini asoslash imkonini beradi. Shuningdek, xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, Finlyandiya ta'lim tizimida modul asosida o'qitish orqali o'quvchilarda "hayotiy kompetensiyalar" shakllantiriladi. Singapurda esa modulli yondashuv orqali o'quvchilarning tanqidiy va reflektiv fikrlash ko'nikmalari ta'lim dasturlarining ajralmas qismi sifatida tatbiq etiladi.

Modulli ta'limning asosiy afzalliklaridan biri — o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, o'zlashtirish sur'atini va shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'limni individuallashtirishga xizmat qilishidir.

Birinchidan, modulli texnologiya o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Har bir modul o'z ichiga nazariy bilim, amaliy mashg'ulot va o'z-o'zini baholash vositalarini olganligi sababli, o'quvchi o'quv jarayonida faol ishtirok etadi, o'z bilimni tahlil qiladi, xatolarini ko'rib chiqadi va to'g'ri xulosa chiqarishni o'rganadi.

Ikkinchidan, bu texnologiya ijodiy yondashuv va tanqidiy fikrlashni shakllantirishga imkon beradi. O'quvchilarga berilgan topshiriqlar hayotiy muammolarga asoslangan bo'lib, ularni hal qilish jarayonida o'quvchi o'z fikrini erkin bayon qiladi, muqobil yechimlar topishga harakat qiladi.

Uchinchidan, modulli ta'lim o'quvchilarda o'z-o'zini nazorat qilish va o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Har bir modul yakunida o'z-o'zini baholash testlari, savol-javoblar yoki refleksiya topshiriqlari mavjud bo'lib, bu o'quvchilarga o'z faoliyatini mustaqil tahlil qilish imkonini beradi.

To'rtinchidan, bu texnologiya pedagogning o'quvchilar bilan ishlash uslubini yangilaydi. O'qituvchi an'anaviy axborot yetkazuvchidan ko'ra ko'proq yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi, tashkilotchilik vazifasini bajaradi. Bu esa darslarda pedagogik hamkorlik va ishonchli muhitni shakllantiradi.

Beshinchidan, modulli texnologiya ta'lim jarayonini moslashuvchan va samarali qilishga xizmat qiladi. O'quvchilar o'z qobiliyatiga qarab modul ustida ishlaydi, mustaqil fikrlaydi va o'zining rivojlanish sur'atini nazorat qiladi. Bu esa bilimlarning chuqur va barqaror o'zlashtirilishiga olib keladi.

Oltinchidan, modulli ta'lim texnologiyasi ta'lim sifatini oshirish bilan birga, raqobatbardosh, kreativ va mas'uliyatli shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu yondashuv ularning ijtimoiy moslashuvini, o'z fikrini ifodalash ko'nikmalarini va mustaqil qaror qabul qilish salohiyatini kuchaytiradi.

**Xulosa.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish nafaqat ularning bilimini oshiradi, balki mustaqil qaror qabul qilish, tahlil qilish, xulosa chiqarish, hamkorlikda ishlash kabi zaruriy hayotiy kompetensiyalarni shakllantiradi. Mazkur texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali zamonaviy, raqobatbardosh, fikrlovchi shaxsni tarbiyalash imkoniyati ortadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

- 1.Azizxo'jayeva, N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Tashkent, 2020.
- 2.Rahimov, S. Sh. "Modulli o'qitish texnologiyasi: Nazariya va amaliyot." Ta'lim va fan yangiliklari, no. 2, 2021, pp. 45-48.
- 3.Zimnyaya, I. A. Pedagogicheskaya psikhologiya. Moscow: Logos, 2004.
- 4.OECD. Innovative Learning Environments. OECD Publishing, 2013.
- 5.Darling-Hammond, Linda et al. Preparing Teachers for a Changing World. Jossey-Bass, 2005.
- 6.Finnish National Board of Education. National Core Curriculum for Basic Education 2014. Helsinki, 2016.
- 7.Ministry of Education, Singapore. "21st Century Competencies and Student Outcomes Framework." Singapore, 2015.